



**ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ\***  
к договору (контракту) от 04.02.2022 г. № 1/М-У/22.

между "Янгийўлқурилш" УК и ГУП Служба заказчика по региональным дорогам г.Ташкента на общую сумму  
3005539000,00

Глава \_\_\_\_\_ 118 \_\_\_\_\_  
Казначейский лицевой счёт \_\_\_\_\_ 100021860262697045201118002 \_\_\_\_\_

(в сумах)

Наименование месяцев 2022 г.	Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации)			Всего
	4233100			
Январь				
Февраль	3 005 539 000,00			3 005 539 000,00
Март				
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
<b>Всего за год</b>	<b>3 005 539 000,00</b>			<b>3 005 539 000,00</b>

Всего 3005539000,00 сум

Три миллиарда пять миллионов пятьсот тридцать девять тысяч сум  
00 тийин  
сумма прописью

Из вышеуказанной суммы 901661700,00 сум или 30,00%\*\*\* от общей суммы договора подлежат предоплате в \_\_\_\_\_ мес. 20\_\_ г.

(\*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2 -х экземплярах;

(\*\*) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(\*\*\*) — Месячный \_\_\_\_\_% , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до \_\_\_\_\_ числа текущего месяца. (Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика



(подпись)

Абдуназаров О.У.  
Ф.И.О.

Главный специалист заказчика

(подпись)

Холматов Ж.К.  
Ф.И.О.

Принял работник казначейского подразделения \_\_\_\_\_

(подпись)

Получил работник заказчика \_\_\_\_\_

(подпись)

« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 20\_\_ г.

« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 20\_\_ г.

# OBJEKTDa MUKAMMAL TA'MIRLASH ISHLARINI OLIB BORISH BO'YICHA

1/M-Y/22-sonli

## PUDRAT SHARTNOMASI

Toshkent shahri

2022 yil " 04 " fevral

Keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan "Toshkent shahri mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK nomidan Ustav asosida ish yurituvchi direktor v.v.b O. Abdunazarov bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladigan "Yangiyo'lqurilish" UK nomidan Ustav asosida ish yurituvchi direktor v.v.b Z.Qarshiboev ikkinchi tomondan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2021 yil 28 may kuni o'tkazilgan majlisning 31-sonli bayoniga asosan Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2021 yil 2 avgustdagi "Toshkent shahar mahalliy byudjetining 2021 yildagi qo'shimcha manbalarini xarajatlarga yo'naltirish haqida"gi VI-44-35-14-0-K/21 va 2021 yil 28 sentabrdagi VI-47-78-14-0-K/21-sonli hamda Toshkent shahar hokimining 2021 yil 16 noyabrdagi 470-14-0-Q/21-sonli qarorlariga asosan Toshkent shahar Yashnobod tumani M-39b "Toshkent xalqa yo'li" avtomobil yo'lining 41-43 km qismini (Ohangaron shossesi) (keyinchalik – obyekt) mukammal ta'mirlashga doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

### 1. TA'RIFLAR

1.1. Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar qo'llaniladi:

**ijro hujjatlari** - naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun ma'sul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda obyektga mukammal ta'mirlash ishlarini ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, qurilish-montaj ishlarini bajarilishini yuritish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar;

**qurilish maydoni** - mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha "Buyurtmachi" tomonidan "Pudratchi"ga ajratilgan yer uchastkasi. Obyektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

**vaqtinchalik inshootlar** – "Pudratchi" tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

**berkitiladigan ishlar** - sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan, keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

**shartnoma narxini bo'lib chiqish** - ishlarning har bir bosqichi va/yoki turlari qiymatini aniq belgilagan holda shartnoma bo'yicha obyektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

### 2. SHARTNOMA MAVZUSI

2.1. "Pudratchi" mazkur shartnoma bo'yicha obyektga mukammal ta'mirlash ishlarini loyiha-smeta hujjatlarida ko'zda tutilgan holda bajarish majburiyatini oladi, "Buyurtmachi" esa "Pudratchi"ga mukammal ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va moliyalashtirish manbai O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi yoki Toshkent shahar mahalliy byudjeti tomonidan shartnoma tuzilayotgan obyekt uchun mablag' ta'minlanishi bilan to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

### 3. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI

3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha obyektga bajariladigan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda amaldagi narxlarda ekspertiza xulosasiga asosan (QQS bilan) 3 193 683 978 (uch milliard bir yuz to'qson uch million olti yuz sakson uch ming to'qqiz yuz yetmish sakkiz) so'mni tashkil etadi.

Pudratchi 2022 yilda tasdiqlangan manzilli ro'yxatga asosan 3 163 725 000 (uch milliard bir yuz oltmish uch million yetti yuz yigirma besh ming) so'mlik qurilish montaj ishlarini bajaradi tashkil etadi.

Buyurtmachi 2022 yilda tasdiqlangan manzilli ro'yxatga asosan ajratilgan limitga ko'ra 3 005 539 000 (Uch milliard besh million besh yuz o'ttiz to'qqiz ming) so'm moliyalashtiradi.

3.2. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- obyektning (undagi sun'iy inshootlar, ko'priklar va tonnelling) qurilish-montaj ishlari qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;

- ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

- obyektning qurilish-montaj ishlari muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi mumkin.

3.3. Tegishli asoslar mavjud bo'lganida, sanab o'tilgan o'zgarishlar "Buyurtmachi" bilan "Pudratchi" o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha kelishuv bilan rasmiylashtiriladi.

3.4. Loyiha-smeta hujjatlarida bajarilishi ko'zda tutilgan ish hajmlari (ish turlari) "Pudratchi" tomonidan to'liq va sifatli qilib bajarilib, ayrim ish hajmlari va harajatlari smeta hujjatlarida ko'zda tutilgan mablag'lardan amalda iqtisod qilinsa, ushbu mablag'ni ayrim xarajatlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararni va qo'shimcha bajarilishi lozim bo'lgan ish hajmlari harajatlarini qoplash uchun obyektning umumiy qiymati doirasida asoslovchi hujjatlar asosida "Buyurtmachi"ning ruhsati bilan yo'naltirilishi mumkin.

#### 4. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI

4.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Pudratchi" quyidagi majburiyatlarga ega:

- mukammal ta'mirlash ishlari boshlanishdan oldin obyektga mukammal ta'mirlash ishlarini olib borish davri uchun "Buyurtmachi" ishtirokida mukammal ta'mirlash qilinayotgan yo'l qismini va undagi mavjud yo'l elementlarini dalolatnoma asosida yo'ldan foydalanuvchi tashkilotdan qabul qilib oladi va qurilish-montaj ishlari yakunlangandan so'ng foydalanuvchi tashkilotga topshiradi. Mukammal ta'mirlash ishlari olib borilayotgan davrda ushbu yo'l qismida yo'l va yo'l inshootlari elementlarini saqlash ishlarini amalga oshiradi hamda avtotransport vositalarining xavfsiz harakatini ta'minlaydi;

- obyektning ijro hujjatlarini rasmiylashtiradi va buyurtmachiga topshiradi shuningdek, ta'mirlash ishlarini amalga oshirish uchun "Pudratchi" o'z materiallari va kuchi bilan bajarib, qurilish materiallarining muvofiqlik sertifikatini, ishlatilgan qurilish materiallari va uskunalarining texnik pasporti hamda boshqa hujjatlarni taqdim etadi;

- obyektga tasdiqlangan loyihaga muvofiq qurilish - montaj ishlarini amalga oshiradi;

- zarur hollarda ayrim ish turlarining bajarilishida loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan mashina-mexanizmlar o'rniga, o'rindosh mashina-mexanizmlardan foydalanilishi, belgilangan sifat va texnologik jarayonning buzilmasligini ko'rsatuvchi sifat laboratoriyasi va loyihachi tashkilotning tegishli xulosasi va ishlatilgan mashina - mexanizmlar narxiga vakolatli idora (tashkilot, organ)ning ekspertiza xulosasi asosida amalga oshirilishi mumkin;

- barcha ishlarni mazkur shartnoma hamda uning 1-ilovasida belgilangan, ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajm va muddatlarda, qurilish qoidalari va me'yorlariga, belgilangan standartlarga amal qilgan holda, obyekt narxidagi ishlarni eng kamida 50%ni o'zining kuchlari bilan bajarish hamda ishni "Buyurtmachi"ga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshiradi;

- obyektga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, boshqa xom-ashyolar va qurilish texnikasini o'z vaqtida hamda zarur hajmlarda yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlashni amalga oshiradi;

- zarur hollarda qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar quradi;

- qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlaydi;

- mazkur shartnoma bo'yicha obyektga foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatadi;

- qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlaydi;

- o'rnatilgan tartibda obyektga sug'urtalanishini ta'minlaydi;

- qurilish jarayonida jalb qilingan ishchi xodimlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirib, ijtimoiy himoyasi va texnik xavfsizligini ta'minlaydi;

- mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi;

- loyiha-smeta hujjatlariga asosan muhandislik kommunikasiyalarni qurish, ko'chirish (gaz, aloqa, suv, kanalizatsiya, elektr o'tkazish tarmoqlari v.h.) bo'yicha lozim bo'lsa, maxsus yordamchi pudrat tashkilotlarini jalb qilgan holda qurilish-montaj ishlarini bajarishni o'z zimmasiga oladi.

4.2. "Pudratchi" mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va yordamchi pudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda obyektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun "Buyurtmachi" oldida to'liq mulkiy javob beradi.

"Pudratchi" "Buyurtmachi" oldida yordamchi pudratchi o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligining oqibatlarini uchun ham javobgar bo'ladi.

4.3. "Buyurtmachi" "Pudratchi" bilan tuzgan shartnomalar buzilishi bilan bog'liq talablarni yordamchi pudratchilarga qo'ymaydi.

4.4. "Pudratchi" obyekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha obyektga mulk huquqini o'zida saqlab qoladi. Obyekt foydalanishga topshirilgunga qadar obyektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishiga "Pudratchi" to'liq javobgar bo'ladi.

## 5. BUYURTMACHI MAJBURIYATLARI

5.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Buyurtmachi" quyidagi majburiyatlarga ega:

-Ishlar bajarilishi ustidan doimiy yo'l qurilishi sifati nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan "Pudratchi" tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, "Pudratchi"dan tugallangan ishlarni, amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ravishda qabul qilib olishni ta'minlaydi;

- "Pudratchi" ning barcha murojaatlarini bir oy muddat ichida ko'rib chiqishi va qaror qabul qilishi mumkin;

- moliyalashtirish jadvaliga binoan "Pudratchi"ga moliyalashtirish manbai bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi yoki Toshkent shahar mahalliy byudjeti tomonidan shartnoma tuzilayotgan obyekt uchun mablag' ta'minlanishi bilan 30% miqdorda bo'nak (avans) berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshiradi;

- "Buyurtmachi" "Pudratchi"ga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yhatini taqdim etadi;

- "Buyurtmachi" "Pudratchi" tomonidan taqdim qilingan hisob-fakturalarni rasmiylashtirib berishni o'z zimmasiga oladi. Agarda taqdim qilingan hujjatlarda kamchiliklar aniqlansa, ularni ko'rsatgan holda 15 ish kunda asoslagan holda "Pudratchi"ga qaytarib beradi.

5.2. Agar texnik hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish tufayli bajarilishi kerak bo'ladigan qo'shimcha ishlar qiymati jihatidan smetada ko'rsatilgan qurilish umumiy qiymatining o'n foizdan oshib ketmasa va qurilish pudrat shartnomasida nazarda tutilgan ishlarning xususiyatini o'zgartirmasa, Buyurtmachi-Loyihachi texnik hujjatlarga o'zgartirishlar kiritishga haqli.

5.3. Texnik hujjatlarga o'zgartirishlar 10% dan kattaroq hajmda o'zgartirishlar kiritish taraflar kelishgan qo'shimcha smeta asosida amalga oshiriladi.

## 6. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI

6.1. Shartnoma qonun hujjatlarga muvofiq ro'yatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi hamda 2022 yil 31 dekabr qadar amal qiladi.

- "Pudratchi" mazkur shartnoma kuchga kirib shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq, avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha mukammal ta'mirlash ishlarining muddati hamda bajariladigan ishlar, ishlarni bajarish jadvali (1-ilova)ga muvofiq amalga oshiriladi.

6.3. "Pudratchi" ishni bajarishning boshlang'ich va ohirgi, shuningdek oraliq muddatlarini buzganlik uchun javobgar bo'ladi.

## 7. TO'LOVLAR VA HISOB-KITOBLAR

7.1. "Buyurtmachi" "Pudratchi"ga shartnomaning 2-ilovasidagi moliyalashtirish jadvaliga asosan avans mablag'ini o'tkazadi.

7.2. Mazkur pudrat shartnomasi kuchga kirgan kundan "Pudratchi" tomonidan ishlarni bajarish rejasiga muvofiq o'z imkoniyati hisobidan obyektida qurilish-montaj ishlarini olib boradi.

7.3. "Buyurtmachi" va "Pudratchi" har oyda bajarilgan mukammal ta'mirlash ishlarini "Ma'lumotnoma-hisob-faktura" bilan rasmiylashtiradi. Bajarilgan ishlarga "Buyurtmachi" tomonidan to'lovlar va hisob-kitoblar shartnomaga asosan faqat "Pudratchi"ning vakolatli bankidagi hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

7.4. Bajarilgan mukammal ta'mirlash ishlari belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan "Ma'lumotnoma-hisob-faktura"ga asosan moliyalashtiriladi. Bunda joriy moliyalashtirish ajratilgan avans mablag'ining har oyda amalga bajarilgan ishlar miqdoridan foiz hisobida taqsimlangan holda ushlab qolib, obyektning shartnomaviy qiymatining 95 % dan kam bo'lmagan miqdorida amalga oshiriladi.

7.5. Obyektning shartnomaviy joriy qiymatidan 5 % gacha miqdoridagi mablag', obyekt davlat qabul komissiyasi tomonidan foydalanishga qabul qilib olingan kundan 12 oylik kafolat muddati o'tgandan so'ng O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi yoki Toshkent shahar mahalliy byudjeti tomonidan mablag' ta'minlanishi bilan moliyalashtiriladi.

## 8. ISHLARNI BAJARISH

8.1. "Buyurtmachi" qurilish maydonida o'z vakilini - texnik kuzatuvchini tayinlaydi, u "Buyurtmachi"ning nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek "Pudratchi" tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

8.2. Texnik kuzatuvchi ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish huquqiga egadir.

8.3. "Pudratchi" texnik kuzatuvchini ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik kuzatuvchi "Pudratchi" tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

8.4. Pudratchi qurilish davrida "Buyurtmachi" ning vakilini (texnik kuzatuvchini) qurilayotgan yo'l qismigacha borib kelishiga transport, qurilish maydonida ish joyi, lozim topilganda yotoq joy (dala sharoitida) ta'minlashni o'z zimmasiga oladi.

8.5. "Pudratchi" obyektida bajarilgan ishlarning hajmlarini ijro hujjatlarini, qilingan sarf-harajatlarni "Buyurtmachi" tomonidan mazkur obyekt uchun birlashtirilgan texnik kuzatuvchi bilan har oyning 25 kunidan oyning oxirigacha obyektning o'zida ko'rib chiqadi va to'liq ma'lumotni (belgilangan shakllarda ijro hujjatlari bilan) keyingi oyning birinchi kuniga qadar "Buyurtmachi"ga topshiradi.

8.6. Bajarilgan va moliyalashtirish uchun qabul qilingan ish hajmlarida arifmetik xato va boshqa kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlanganda, keyingi oylarda bajarilgan ish hajmlari tegishli o'zgartirishlar (korrektirovka) kiritilgan holda rasmiylashtiriladi.

8.7. "Pudratchi" ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning 6-bo'limda ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va ishlarni bajarish jadvaliga binoan obyektida ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

8.8. "Pudratchi" obyektida ishlarni olib borish tartibini yo'l qurilishi sifatini nazorati organlari bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

8.9. "Pudratchi" qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlaydi.

8.10. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va obyektни privyazka qilish uchun Pudratchiga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taqdim etadi.

8.11. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan obyektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari o'lchamlari bo'lishi va ularning muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi. Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa Pudratchi Buyurtmachiga ma'lum qilgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

8.12. Pudratchi geodeziya bo'lish ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarning joylashi sxemalarini va jadvallarni saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnomani bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

8.13. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikasiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikasiyalarni ulashni "Pudratchi" amalga oshiradi.

8.14. "Pudratchi" o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spesifikasiyalarga, davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

8.15. Alohida mas'uliyatli konstruksiyalar va berkitiladigan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni qabul qilish boshlanishidan 2 kun oldin "Pudratchi" "Buyurtmachi"ni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yo'l qurilishi ishlari sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasini yozma ravishda xabardor qiladi.

8.16. Yopilib ketadigan ishlarni qabul qilib olish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Agar berkitiladigan ishlar "Buyurtmachi"ning tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u holda "Buyurtmachi"ning talabi bo'yicha "Pudratchi" uning ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

Pudratchi Buyurtmachining manfaatlarga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining rozilgisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isoblatlasi javobgar hisoblanmaydi.

8.17. Bajarilgan ishlar va yo'llarning tugallangan konstruktiv elementlarini oylik (oraliq) qabul qilib olish natijalari belgilangan shaklda ma'lumotnoma-hisob-faktura bilan rasmiylashtiriladi.

8.18. Agar "Buyurtmachi" "Pudratchi" (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda "Pudratchi" o'z kuchlari va mablag'lari hisobidan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majbur.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

8.19. "Pudratchi" qurilish maydonini va unga tutash yo'l uchastkalari va yo'laklarning ozodaligini ta'minlaydi xamda avtotransport vositalarining xavfsiz xarakterini ta'minlaydi.

Pudratchi Buyurtmachining ishlarni bajarish daftariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

8.20. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallanguncha "Pudratchi" mukammal ta'mirlash ishlarini bajarilishini yuritish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, "Buyurtmachi" va "Pudratchi"ning o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, kunlik o'rtacha havo harorati va yog'ingarchiliklar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

8.21. Pudratchi Buyurtmachining ishlarni bajarish daftariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina, keyingi ishlarni bajarishga kirishadi. Agar "Buyurtmachi" ishlarning borishi va sifatidan yoki "Pudratchi" ning qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

8.22. "Pudratchi" daftarda "Buyurtmachi" tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## 9. ISHLARNI QO'RIQLASH

9.1. "Pudratchi" ishlar boshlanishidan mukammal ta'mirlash tugallanguncha va mukammal ta'mirlash tugallangan obyekt "Buyurtmachi" tomonidan qabul qilib olingunga qadar chetlari to'silgan qurilish maydoni hududida materiallar, asbob-uskunalar, qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi.

## 10. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

10.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi fors-major holatlari (favqulodda vaziyatlar, favqulodda holat, yuqori turuvchi davlat organlarining qarori va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarilmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

10.2. "Pudratchi"ning mazkur shartnomani bajarish uchun boshqa shartlashuvchi sheriklari tomonidan majburiyatlarning buzilishi, majburiyatni bajarish uchun zarur tovarlarning bozorda yo'qligi, "Pudratchi"da zarur pul mablag'larining bo'lmaganligi fors-major holatlariga kirmaydi.

10.3. Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

10.4. Agar fors-major holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda "Pudratchi" va "Buyurtmachi" ishlarni davom ettirish yoki ularni konservasiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

10.5. Fors-major holatlarini aniqlash uchun Tomonlar qonunchilikka ko'ra tegishli ravishda tasdiq olishlari mumkin.

10.5. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

## **11. MUKAMMAL TA'MIRLASH ISHLARI TUGALLANGAN OBYEKTNI QABUL QILIB OLISH**

11.1. Mukammal ta'mirlash ishlari tugallangan obyektни qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgan keyin, shuningdek mukammal ta'mirlash tugallangan obyektlarni foydalanishga qabul qilib olish shaharsozlik normalari, qoidalari va standartlariga asosan amalga oshiriladi.

11.2. Qabul qilib olingan paytdan boshlab obyekt davlat mulkiga aylanadi va o'rnatilgan tartibda yo'llardan foydalanish korxonasi balansiga o'tadi.

## **12. KAFOLATLAR**

12.1. "Pudratchi":

- barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;
- loyiha-smeta hujjatlariga, shaharsozlik normalari va qoidalari hamda texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni sifatli bajarishni;
- o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatyalarga, davlat standartlariga hamda texnik shartlarga muvofiqligini;
- ishlarni qabul qilish va shartnomada belgilangan kafolat muddati mobaynida obyektдан foydalanish jarayonida nuqsonlar va chala qilingan ishlar aniqlanganda, o'z hisobidan bepul bartaraf etishni;
- obyektдан foydalanilganda muhandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalarga muvofiqligini kafolatlaydi.

12.2. Obyekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddati tomonlar mukammal ta'mirlash tugallangan obyektни qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab 12 oy etib belgilanadi.

12.3. Agar obyektдан foydalanishning kafolat muddatida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar "Pudratchi" tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi.

12.4. Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari "Pudratchi" va "Buyurtmachi"ning ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi mazkur shartnomaning VII bo'limida nazarda tutilgan kafolat summasini Pudratchidan ushlab qolish, O'zbekiston Respublikasi tamondan kabul kilingan konun va meyoriy xujjatlarga asosan javobgarlikka tortish tugrisida urnatilgan tartibda konunni muxofaza kiluvchi muassasalarga murojat kilish huquqiga ega.

12.5. "Pudratchi" nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi Yo'l qurilishi ishlari sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasini tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga murojaat qilishini istisno etmaydi.

### 13. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

#### 13.1. "Buyurtmachi":

-shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi "Buyurtmachi"ga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra "Pudratchi" tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

-Pudrat tomonidan shartnomada belgilangan muddatlar (Bajarish jadvali) "Buyurtmachi"ga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra muntazam ravishda buzilganda;

- "Pudratchi" tomonidan shartnoma shartlari shaharsozlik normalari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

-qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

#### 13.2. "Pudratchi":

-ishlarning bajarilishi "Pudratchi"ga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra "Buyurtmachi" tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

- "Buyurtmachi" tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

-qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

13.3. Shartnoma bekor qilinganda "Buyurtmachi" va "Pudratchi"ning qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda "Buyurtmachi"ga beriladi, "Buyurtmachi" bajarilgan ishlar qiymatini "Pudratchi"ga to'laydi.

13.4. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

13.5. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

13.6. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

### 14. TOMONLARNING MULKIY JAVOGBARLIGI

14.1. Tomonlar o'z majburiyatlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunda, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi;

- aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'laydi.

14.2. Mukammal ta'mirlash ishlarini olib borayotgan "Pudratchi" qonunchilikka asosan va shartnomaga muvofiq buyurtmachi oldida quyidagi ishlar bo'yicha mulkiy javobgardir:

-sifatsiz bajarilgan qurilish-montaj ishlari;

-obyektning hamda uning bosqichlari va navbatlarini belgilangan muddatda tugallamagani;

-buyurtmachi bilan tuzilgan shartnoma asosida qurilish-montaj va boshqa ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan uskunalarni montaj qilish muddatlari buzilishi;

-obyektning loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan yerlarni rekultivatsiya qilish ishlari bajarish hajmlari va muddatlarining buzilishi;

-mukammal ta'mirlash jarayonida yoki oraliq qabul qilishda pudratchi, mualliflik nazorati va boshqa nazorat organlari tomonidan aniqlangan konstruksiya va ishlardagi yo'l qo'yilgan kamchiliklar va nuqsonlarni bartaraf etishni orqaga surish;

-shartnomada ko'zda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarmagani yoki to'laqonli bajarmagani.

14.3. "Pudratchi" tomonidan ishlarning bajarilishida pudrat shartnomasidan chekinish yoki boshqa kamchiliklar mavjudligida "Pudratchi" o'z hisobidan bartaraf etadi.

Agar Pudratchi tashkilot nuqsonlarni kelishilgan muddatlarda bartaraf etmasa, Buyurtmachi yoki yo'ldan foydalanuvchi tashkilot o'z kuchi bilan Pudratchi xisobidan nuqsonlarni bartaraf etish hamda nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf etilmaganligidan keltirilgan zararni va bajarilgan ish qiymatini undirish xuquqiga ega.

14.4. Shartnomada belgilangan majburiyatlarni buzganligi uchun "Buyurtmachi" "Pudratchi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi,



bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim, bunda "Buyurtmachi"ga bog'liq bo'lmagan holatlar bundan mustasno.

Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortilganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashi rad etgan yoki bosh tortgan summaning 0,4 foizi miqdorida jarima to'laydi.

14.5. "Pudratchi" tomonidan Obyektni o'z vaqtida ta'mirlash va ishga tushirish bo'yicha boshlang'ich, oraliq va oxirgi muddatlari yuzasidan majburiyatlar buzilgan bo'lsa "Pudratchi" "Buyurtmachi"ga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim, bunda "Pudratchi"ga bog'liq bo'lmagan holatlar bundan mustasno.

Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0,4 foiz miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 20 foizidan oshmasligi kerak.

14.6. "Pudratchi" bajarish grafigida har choragi uchun belgilangan ish hajmi (ish turlari) qiymatining shu chorak uchun belgilangan ish hajmining bajarmagan qismidan "Buyurtmachi"ga 1 foizi miqdorida jarima to'laydi.

14.5. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi, yoki lozim darajada bajarilmaganligi mazkur bandda nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

Buyurtmachi Pudratchining bajarilgan ishlari hajmidan yoki moliyaviy hisob-kitoblardan aniqlangan kamchiliklar natijasida Buyurtmachiga qaytariladigan mablag'lar va boshqa to'lovlar bo'yicha majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmasa, Buyurtmachi ushbu mablag'larni moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan chegirib qolish huquqiga ega.

14.7. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya va jarima to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

## 15. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

15.1. Ushbu pudrat shartnomasi amal qilish davomida yuzaga keladigan nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan hal etiladi.

15.2. Muzokara natijasida kelishuvga kelinmagan taqdirda nizolar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

## 16. ALOHIDA SHARTLAR

16.1. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

16.2. "Pudratchi" qurilish obyektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini "Buyurtmachi"ning yozma ruxsatisiz, yordamchi pudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

16.3. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

16.4. "Buyurtmachi" bilan "Pudratchi" o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday ahdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

16.5. Agar "Pudratchi" shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda "Buyurtmachi" "Pudratchi" qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

16.6. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

16.7. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

16.8. Mazkur shartnoma tomonlar tarafidan imzolanib, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tomonidan ro'yhatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi hamda tomonlar o'z majburiyatini to'liq bajarguniga qadar amal qiladi.

16.9. Shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab, tomonlar o'z vazifalarini bajarishga kirishadi, shuningdek mazkur shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlari vujudga keladi.

16.10. Mazkur shartnoma tomonlar o'z majburiyatini to'liq bajarguncha amal qiladi.

16.11. Mazkur shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

1- ilova – Bajarish jadvali;

2- ilova – Moliyalashtirish rejasi.

## 17. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI:


### BUYURTMACHI

**“Toshkent shaxar mintaqaviy yo‘llarga  
buyurtmachi xizmati” DUK**

Yuridik manzil: 100000, Toshkent shahri  
Mustaqillik shoh ko'chasi, 68 uy,  
Sh/x: 1000 2186 0262 6970 4520 1118 002  
STIR: 304 893 532 IFUT 42110  
O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi  
G'aznachiligining Amaliyot boshkarmasi  
X/r 23 402 000 300 100 001 010  
MFO: 00014 STIR: 201 122 919  
MB Toshkent shahar bo'yicha BBXKM

**Direktor v.v.b.**

**O. Abdunazarov**



### PUDRATCHI

**“Yangiyo‘lqurilish” UK**

Toshkent viloyat Yangiyo‘l shahri Charikov  
ko'chasi 18-uy  
Tel 94 620 56 65  
x/r: 2262 6000 0008 4940 4003  
XATB “Davr bank” Yakkasaroy filiali  
MFO: 01069  
STIR: 305 356 415

**Direktor v.v.b.**

**Z. Qarshiboev**



*Handwritten signatures in blue ink at the bottom left of the page.*

## Toshkent shahar Yashnobod tumani M-39b "Toshkent xalqa yo'li" avtomobil yo'lining 41-43 km qismini (Ohangaron shossesi) mukammal ta'mirlash

## BAJARISH JADVALI

ming so'mda

№	Amalga oshiriladigan ishlar	Yil	2022 yil												umumi qiymati	
			I-chorak			II-chorak			III-chorak			IV-chorak				
			Yanvar	Fevral	Mart	April	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentabr	Oktabr	Noyabr	Dekabr		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	
	Qurilish-montaj ishlari	2022		3 163 725,000												3 163 725,000
	Jami		0,000	3 163 725,000	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	3 163 725,000

"BUYURTMACHI"

"Toshkent shahri mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK



Direktor v.v.b.

O.Abdunazarov

"PUDRATCHI"

"Yangiyo'lqurilish" UK

Direktor v.v.b.

Z.Qarshiboyev



2022 йил 04 февралдаги 1/М-У/22-сонли шартномага 2-илова

Халқ депутатлари Тошкент шаҳар Кенгашининг 2021 йил 28 сентябрдаги “Тошкент шаҳар маҳаллий бюджетининг 2021 йилдаги қўшимча манбаларини харажатларга йўналтириш ҳақида”ги VI-47-78-14-0-К/21-сонли қарори бўйича Маҳаллий бюджет ҳисобидан

“Тошкент халқа йўли” 41-43 км участкасини (Охангарон шоссеси) мукаммал таъмирлаш ишлари  
МОЛИЯЛАШТИРИШ РЕЖАСИ

100021860262697045201118002

Х/Р

МИНГ СЎМ

Молиялаштириш жадвали	Йил	2022	ҳисобланган аванс маблағи	2022 йил												Жами	Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 5 мартдаги 123-сонли қарорига асosan 5% кафолат суммаси		
				январ	феврал	март	апрел	май	июн	июл	август	сентябр	октябр	ноябр	декабр				
Йиллик иш ҳажмидан ҳисобланган 30% аванс маблағи <i>(тикланиш ва тараққиёт жамғармаси маблағлари ҳисобидан молиялаштириш)</i>	2022	3 005 539,00	901 661,700		901 661,70												0,00	158 186,0	
Ажратилган аванс маблағи чегирлигини ойлар бўйича тақсимланган қисми <i>(тикланиш ва тараққиёт жамғармаси маблағлари ҳисобидан молиялаштириш)</i>	2022				901 661,70												901 661,70		
Ажратилган аванс маблағини илоббатта олиб бажарилган ишларни молиялаштиришга ажратилган маблағ <i>(тикланиш ва тараққиёт жамғармаси маблағлари ҳисобидан молиялаштириш)</i>	2022				3 005 539,00												3 005 539,00		
Жами сумма ойлар кесимида	2022	3 005 539,0	901 661,7	0,000	3 907 200,700	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	0,00	0,000	0,000	0,00	0,000	3 005 539,00	3 163 725,00		
Жами	3 163 725 000 (Уч миллиард бир юз олтинчи уч миллион етти юз йигирма беш минг ) сўм																		

"БУЮРТМАЧИ"

"Тошкент шаҳри минтақавий йўлларга буюртмачи хизмати" ДУК

Директори в.в.б



"ПУДРАТЧИ"

"Янгийўлқурилш" УК

Директори в.в.б

